

SHAROF RASHIDOV'S ROLE IN THE SOCIO-ECONOMIC DEVELOPMENT OF THE UZBEK SSR DURING 1959–1983

Xursandova Sarvigul Norali qizi

Student of the History Education Program, Termez State Pedagogical Institute

Abstract

This article examines the socio-economic development of the Uzbek SSR during 1959–1983 and analyzes the role of Sharof Rashidov in these processes. The study highlights reforms and transformations implemented in industry, agriculture, irrigation, urban development, education, science, and culture. Particular attention is paid to both the positive and negative consequences of the cotton monoculture policy, the relations between the Soviet center and the republic, and the specific characteristics of the period. Based on historical sources, the article evaluates the significance of Sharof Rashidov's activities in the development of the Uzbek SSR.

Key words

Sharof Rashidov, Uzbek SSR, socio-economic development, cotton production, industrialization, irrigation, cultural development, education system, urban development, Soviet period, economic policy, historical development.

1959–1983-YILLARDA O‘ZBEKISTON SSRNING IJTIMOYIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA SHAROF RASHIDOVNING O‘RNI

Xursandova Sarvigul Norali qizi

Termiz davlat pedagogika institute Tarix ta'lim yo'nalishi talabasi

E-pochta: aanvar@gmail.com Tel: +998-91-574-48-41

Annotatsiya: Mazkur maqolada 1959–1983-yillarda O'zbekiston SSRning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlari hamda ushbu jarayonlarda Sharof Rashidovning tutgan o'рни tahlil qilinadi. Respublikada sanoat, qishloq xo'jaligi, irrigatsiya tizimi, shaharsozlik, ta'lim, fan va madaniyat sohalarida amalga oshirilgan

islohotlar va o'zgarishlar yoritiladi. Shuningdek, paxta yakkahokimligi siyosatining ijobiy va salbiy jihatlari, markaz va respublika o'rtasidagi munosabatlar hamda davrning o'ziga xos xususiyatlari tarixiy manbalar asosida baholanadi. Tadqiqot natijalari Sharof Rashidov faoliyatining O'zbekiston SSR taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ochib berishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: Sharof Rashidov, O'zbekiston SSR, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, paxtachilik, sanoatlashtirish, irrigatsiya, madaniy taraqqiyot, ta'lim tizimi, shaharsozlik, sovet davri, iqtisodiy siyosat, tarixiy taraqqiyot.

Аннотация: В данной статье анализируются процессы социально-экономического развития Узбекской ССР в 1959–1983 годах, а также роль Шарафа Рашидова в данных процессах. Освещаются преобразования и реформы, осуществлённые в сферах промышленности, сельского хозяйства, ирригации, градостроительства, образования, науки и культуры. Особое внимание уделяется положительным и отрицательным последствиям политики хлопковой монокультуры, взаимоотношениям между союзным центром и республикой, а также специфическим особенностям рассматриваемого периода. На основе исторических источников раскрывается значение деятельности Шарафа Рашидова в развитии Узбекской ССР.

Ключевые слова: Шараф Рашидов, Узбекская ССР, социально-экономическое развитие, хлопководство, индустриализация, ирригация, культурное развитие, система образования, градостроительство, советский период, экономическая политика, историческое развитие.

KIRISH

O'zbekiston SSRning Sharof Rashidov rahbarligi davri (1959-1983 yillar) sovet davlatchiligi tarixida murakkab ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, markazlashgan boshqaruv tizimi hamda respublikalarning iqtisodiy va madaniy rivojlanishidagi o'ziga xos

qarama-qarshiliklar bilan ajralib turadi. Ushbu davrni ilmiy jihatdan o'rganish nafaqat tarixiy haqiqatni tiklash, balki sovet totalitar tizimining mahalliy boshqaruv mexanizmlariga ta'sirini chuqur anglash imkonini beradi.

Tarixiy manbalar, xususan, arxiv hujjatlari, sovet davri statistik to'plamlari hamda zamonaviy tarixshunos olimlarning (A. Xudoyqulov, B. Aminov, D. Alimova, S. Abdullayev va boshqalar) tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, Sharof Rashidov davrida O'zbekiston iqtisodiy jihatdan agrar-xomashyo bazasi sifatida ittifoq ehtiyojlariga yo'naltirilgan bo'lsa-da, shu bilan birga sanoatlashuv jarayonlari, ta'lim va madaniyat tizimining kengayishi ham kuzatilgan.

Biroq, markaziy rejalashtirish tizimi sharoitida respublika manfaatlarining to'liq ifodalanmasligi, iqtisodiy ko'rsatkichlarning ko'pincha "sun'iy oshirilishi", paxta yakkahokimligi siyosati va uning ijtimoiy oqibatlari kabi masalalar bugungi kunda ham ilmiy munozaralarga sabab bo'lib kelmoqda. Aynan shu jihat Rashidov davrini biryoqlama emas, balki kompleks va obyektiv yondashuv asosida qayta tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shuningdek, mustaqillik yillarida tarixiy adolatni tiklash jarayonida sovet davri rahbarlarining faoliyatiga nisbatan turlicha baholar berildi. Bu esa Sharof Rashidov shaxsi va uning siyosiy faoliyatini zamonaviy tarixshunoslik tamoyillari - xolislik, manbaviylik va ilmiy tanqidiy yondashuv asosida o'rganishni dolzarb vazifaga aylantiradi. O'zbekiston Respublikasida tarix fanini rivojlantirish, sovet davri merosini qayta baholash va milliy tarixiy xotirani mustahkamlashga qaratilgan davlat siyosati ham ushbu mavzuning ahamiyatini yanada oshiradi. Xususan, Prezident farmon va qarorlarida tarixiy haqiqatni tiklash, yosh avlodni milliy o'zlik va vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, bu Rashidov davri tarixini chuqur ilmiy o'rganishni taqozo etadi.

Sharof Rashidov (1917–1983) O'zbekiston SSR tarixida eng uzoq muddat 1959-yildan 1983-yilgacha O'zbekiston Kommunistik Partiyasi Markaziy Qo'mitasining birinchi kotibi lavozimida faoliyat yuritgan davlat arbobi hisoblanadi. Uning faoliyatini to'g'ri tushunish uchun sovet tizimi doirasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy muhitni hisobga olish zarur, chunki keyingi avlod rahbarlari o'z dasturlarini aynan shu davrning saboqlarini inobatga olgan holda shakllantirishgan[1, 46]¹.

Insoniyatning tarixiy rivojlanishi jarayonida ijtimoiy-siyosiy tizimlarning o'zgarishi, xalqlarning mustaqillikka bo'lgan intilishi, orzu-umidlari, milliylik bilan zamonaviylik, umuminsoniy qadriyatlar bilan sovetcha baynalmilallik, musulmon urf-odatlar bilan kommunistik dinsizlik o'rtasida kechgan mafkuraviy kurashlar davlat va jamiyat munosabatlarining tubdan o'zgarishiga olib kelgan. Totalitar siyosat xalqlarning o'zligini, milliy or-nomusini saqlashga intilishi, yetakchi rahbar shaxslarning siyosiy roli va umumbashariy qadriyatlar – erkinlik hamda hurriyatga asoslanmaganligi bilan ifodalanadi. Zotan, bu ozodlik yo'lidagi barcha xalqlarning mushtarak maqsad-muddaolarini birlashtirishga, mustamlaka zanjirlarini parchalashga, o'z mustaqil taraqqiyot yo'llarini tanlashga xizmat qilganligi bilan dolzarb ilmiy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-martdagi “Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov tavalludining 100 yilligini nishonlash to'g'risida”gi PQ-2854-sonli, 2018-yil 14-avgustdagi “Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-3907-sonli, 2018-yil 28-noyabrdagi “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PQ-4038-sonli, 2021-yil 26-martdagi “Ma'naviyat va ijodni qo'llab-quvvatlash maqsadli jamg'armasini tashkil etish

¹ Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O'zbekiston, 2018. – 497 b.

to‘g‘risida”gi PQ-5039-sonli, 2021-yil 26-martdagi “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-5040-sonli, 2021-yil 4-martdagi “2021–2025-yillarda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida” gi PF-6181-sonli farmon va qarorlari hamda Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-iyundagi “Sh.R. Rashidov tavalludining 75 yilligiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish haqida”gi VM-267-sonli qarori va boshqa hujjatlarda belgilab berilgan vazifalarni amalga oshirishga ushbu ilmiy maqolamizga muayyan darajada xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

1987-yilga kelib, nufuzli “Literaturnaya gazeta”da I. Belyaevning “Islam”[2, 56]² nomli maqolasi e’lon qilinadi. Maqolada musulmonlarga sovet tuzumiga xavf soladigan dushman kayfiyatidagi din vakillari sifatida baho beriladi. Bundan tashqari, “O‘zbeklar ishi”ni fosh etishda Rossiyaning eng mashhur nashrlari ham faol ishtirok etadi. Jumladan, “Ogonyok”, “Sovetskiy ekran”, “Iskusstvo kino”, “Smena”, “Pravda”, “Argumenty i fakty”, “Moskovskie Novosti”, “Komsomolskaya Pravda”, “Sobesednik”, “Izvestiya”, “Sovetskaya kultura”, “Literaturnaya gazeta”, “Sotsialisticheskaya industriya”, “Krasnaya Zvezda”, “Moskovskiy komsomolets”[3]³ kabi nashrlar shular jumlasidandir.

Maqolalarning nomlanishiga e’tibor berilsa: “Oltin ustidagi ilonlar”, “Millat otasi”, “Biz mafiyaga to‘qnash keldik”, “O‘g‘irlangan”, “Korrupsiya pillapoyasi”, “Korrupsiya”, “Tergov hali tugamadi” va shu mazmundagi maqolalar O‘zbekiston xalqi va rahnamosi haqida bo‘htonlar yaratishga hamda sobiq ittifoqdosh respublikaga nisbatan salbiy munosabatni shakllantirishga xizmat qilgan[4, 89]⁴.

² Калашников М. Кугушев С. Третий проект: погружение. – М.: Издательская группа АСТ, 2002. – С. 231.

³ Мазкур муаллифлар асарлари диссертациянинг «Фойдаланилган адабиётлар рўйхати»да берилган.

⁴ Алимардонов Т. Ўчмас шараф. – Тошкент: Доно, 2017. – 272 б.

A.A. Gromikonining “Pamyatnoye”, V.I. Dashchevning “Ot Stalina do Putina. Vospominaniya i razmyshleniya o proshlom i budushchem”, S.V. Cheshkoning “Raspad SSSR: etnopoliticheskiy analiz”, F. Razzakovning “Korrupsiya v Politbyuro. Delo krasnogo uzbeka» kabi asarlar, shuningdek, Sh. Rashidov faoliyati yuzasidan xorijiy tadqiqotchilar, davlat arboblari - Fidel Kastro, D. Kunaev, Gregory Gleason va boshqalarning xotiralari hamda tadqiqotlarida uning rahbarlik va diplomatik faoliyati to‘g‘risida qimmatli hamda ijobiy ma’lumotlar beriladi[5,45]⁵. Mazkur manbalarda Sh. Rashidovning murakkab siyosiy sharoitdagi rahbarlik salohiyati, insonparvarligi, baynalmilalligi va yetakchilik fazilatlarini alohida ta’kidlanadi.

2000-yillarga kelib N. Hamroyevning “Kogda rastsvetayet zemlya”, Sh. Qobilovning “Paxta yakkahokimligi va uning halokatli oqibatlari”, S. Rizaev⁶ning “Sh. Rashidov. Shtrikhi k portretu”, V.A. Duxovniyning “Voda techet, voda zovet...”, R. Gazievning “Deyateli Uzbekistana. Vospominaniya o Sharafe Rashidove”, X. Yunusovning “Nekotorye voprosy izucheniya repressiy v Uzbekistane po “Xlopkovomu delu”, E. Nordmannning “Shtrikhi k portretam: general KGB rasskazyvaet” kabi asarlar totalitar tuzum davri siyosiy jarayonlari va Sh. Rashidov faoliyatini baholashga qaratilgan muhim tadqiqotlar sirasiga kiradi[7]⁷.

Sh. Ergashevning “Erk istar ko‘ngil”, A. To‘raevning “Biz bilgan va bilmagan hazrati inson”, E. Yusupovning “Zulmat ichida ziyo izlab”, G. Sh. Rashidova va D. A. Komilovning “Sharof Rashidov: inson – davr ko‘zgusida va davr – inson taqdirida”, T. Alimardonovning “O‘chmas sharaf”, I. Kuchievning “Sharaf Rashidov: pobeditel”, R.

⁵ Gregory Gleason. Sharaf Rashidov and the dilemmas of national leadership, Central Asian Survey Vol. 5. Iss. 3-4, 1986.

⁶ Ризаев С. Шараф Рашидов. Штрихи к портрету. – Т.: “Ёзувчи” – “Нур”, 1992. -246 с.

⁷ Клименко А.И. Духовно-нравственное воспитание студентов в учебном процессе. – 2024. – С. 56-59; Кашина С.В. Духовно-нравственное воспитание подрастающего поколения в системе дополнительного образования //Сфера образования. 2020. – С. 27; Михеенко Я.С. Духовно-нравственный потенциал рассказа А. П. Гайдара “Дым в лесу” //Аксиологический диапазон художественной литературы: сб. науч. статей. – Витебск: ВГУ имени П. М. Машерова, 2020. – С. 62-64.

Nishonov va R. Abdullayeva hamda boshqalarning ko‘plab xotiralari va suhbatlari kiradi[8, 62]⁸. Xususan, “Kreml da o‘tgan kunlarim (Esdaliklar)” va “Sharof Rashidov. Portretiga chizgilar” asarlari mualliflari Sh. R. Rashidov bilan bevosita birga ishlagan shaxslar bo‘lib, o‘z xotiralari hamda tadqiqotchilar uchun noyob hisoblangan materiallar asosida uning faoliyatining turli jihatlarini, jumladan, diplomatik faoliyatini ham tahlil qilganlar[9, 78]⁹.

ASOSIY QISM

Atoqli davlat arbobi va yozuvchi Sharof Rashidov 1917-yil 6-noyabrda Jizzax shahrida tavallud topgan. 1926-1933-yillarda u Narimonov nomidagi maktabda tahsil olgan. Jizzaxdagi pedagogika texnikumini tamomlagach, bir muddat maktabda pioner yetakchisi va o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritgan.

1941-yilda Samarqand davlat universitetini tugatgan. 1938–1941-yillarda Samarqand viloyatining “Lenin yo‘li” gazetasida ishlagan. 1941–1942-yillarda Ikkinchi jahon urushida ishtirok etgan. 1944–1947-yillarda Samarqand viloyat partiya qo‘mitasi kotibi, 1949–1950-yillarda esa “Qizil O‘zbekiston” (hozirgi “O‘zbekiston ovozi”) gazetasining muharriri bo‘lgan. 1949–1950-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi, 1950–1959-yillarda O‘zbekiston Oliy Kengashi Prezidiumi raisi lavozimida ishlagan. 1959–1983-yillarda esa respublikaning birinchi rahbari sifatida O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasiga rahbarlik qilgan.

Sharof Rashidov ijodiy faoliyatini dastlab she‘riyatdan boshlagan. U “O‘lkam”, “Orzuimiz”, “San’ating kulsin”, “Vatan ishq”, “Singlimga”, “Lochinlar”, “Ona

⁸ Абуталипов Ч.А. Международные связи Узбекистана. – Т., 1964 – 119 с.; Абуталипов Ч.А. Под ленинским

знаменам дружбы и мира. – Т.: Государственное издательство Узбекской ССР. 1970. – 365 с.;

Маннонов Б.,

Нишонов М. Ўзбекистон ССРнинг чет мамлакатлар билан иқтисодий ва маданий алоқалари. – Т.: «Фан», 1974. – 54 б.

⁹ Муҳитдинов Н.А. Кремлда ўтган кунларим [Эсдаликлар]. Биринчи китоб. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1995.

316 с.

nasihati” kabi she’rlar muallifidir. 1945-yilda uning “Qahrim” nomli she’rlar to‘plami nashr etilgan.

Shuningdek, u “G‘oliblar” (1951), “Kashmir qo‘shig‘i” (1959) qissalari, “Ikki dil dostoni” kinossenariysi, “Bo‘rondan kuchli” (1958), “Qudratli to‘lqin” (1964), “G‘oliblar” (1972) romanlari hamda “Dil amri” (1982) qissasini yaratgan.

1949 -1950-yillarda O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi raisi. 1950-1959-yillarda O‘zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumi raisi va SSSP Oliy Sovet Prezidiumi raisi o‘rinbosari. 1959-yil mart oyidan O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Komitetining birinchi kotibi. U 1937 -1938-yillardagi O‘zbekiston ziyolilari vakillarining (begunoh mahkumlarni) rehabilitatsiya qilish tashabbusi bilan chiqqan. KPSS XIX-XXIV syezdlari delegati; 1956-yildan MK a‘ziligiga nomzod, 1961-yildan KPSS MK a‘zosi. Sharof Rashidov 1960-yillardan boshlab xalqaro siyosat maydonida chiqishlar qila boshladi. 1962-yilda Kuba inqirozi paytida u Fidel Kastro bilan muzokarlarda sovet delegatsiyasiga rahbarlik qildi. 1961-yildan MK Prezidiumi a‘ziligiga nomzod, 1966-yil apreldan Sovet Ittifoqi Kommunistik Partiyasi MK Siyosiy burosi a‘ziligiga nomzod. 1966-yil apreldan KPSS Markaziy Qo‘mitasi Siyosiy byurosi a‘ziligiga nomzod. III-X chaqiriq SSSR Oliy Soveti deputati. 1970-yildan SSSR Oliy Soveti Prezidiumi a‘zosi. 1966-yilda Toshkentda A.Kosigin vositachiligida Hindiston Bosh vaziri L.Shastri va Pokiston Prezidenti Muhammad Ayubxon o‘rtasida muzokaralar bo‘lib o‘tdi. Bu muzokaralarni tayyorlashda Sharof Rashidov ham ishtirok etgan.

Ikki marta Sotsialistik Mehnat Qahramoni (1974), (1977). Lenin mukofoti laureati. 6 marta Lenin ordeni bilan, 4 marta boshqa ordenlar bilan, shuningdek medallar bilan taqdirlangan. 1994-yilda Alisher Navoiy nomidagi Davlat mukofoti berilgan.

Rashidovning nomi uning rahbarligi davrida mintaqaning iqtisodiy rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Sharof Rashidov davrida barpo etilgan V. P. Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi dunyodagi eng yirik aviatsiya

korxonalaridan biriga aylangan. Bu korxonada yiliga 60 tadan ortiq yirik samolyotlar ishlab chiqarilgan[10]¹⁰.

Toshkent traktor zavodida yiliga 21 mingdan ortiq traktor, “Tashselmash” korxonasida esa 10 mingdan ortiq paxta terish kombaynlari ishlab chiqarilgan. 1969-yilda O‘zbekistonda Muruntov oltin koni o‘zlashtirilib, undan yiliga 100 tonnagacha oltin qazib olingan.

Rashidov davrida O‘zbekiston yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlangan industrial-agrar respublikaga aylangan bo‘lib, og‘ir sanoat sezilarli darajada, ya’ni o‘n barobargacha o‘sgan. Bu davrda yirik issiqlik elektr stansiyalari - Toshkent (1971-yildan), Sirdaryo (1975-yildan), Navoiy va Angren IESlari hamda Chorvoq gidroelektr stansiyasi (1972-yildan) qurib ishga tushirilgan.

Rashidov davrida 1966-yildan boshlab O‘zbekiston poytaxti Toshkent shahrini qayta tiklash va rekonstruksiya qilish ishlari keng ko‘lamda amalga oshirildi. Shaharda yangi muzeylar, bog‘lar, teatrlar va yodgorlik majmualari barpo etildi.

1970-yilda Samarqand shahrining 2500 yilligi nishonlanib, ushbu sana munosabati bilan keng ko‘lamli madaniy va ilmiy tadbirlar o‘tkazildi. Shu davrda Samarqandda shahar tarixi muzeyi hamda opera va balet teatri faoliyati yo‘lga qo‘yildi. 1977-yilda esa O‘rta Osiyoda ilk bor Toshkent metrosi ishga tushirildi.

1969-yilda Samarqand shahrida Temuriylar davri san’ati tarixiga bag‘ishlangan xalqaro simpozium o‘tkazildi. 1973-yilda mashhur alloma Abu Rayhon Beruniy tavalludining 1000 yilligi keng nishonlanib, bu munosabat bilan badiiy film ham suratga olindi.

O‘zbekistonda Sharof Rashidov rahbarligi davrida ilmiy-tadqiqot institutlari soni sezilarli darajada oshdi: 1960-yildagi 64 tadan 1980-yillar boshiga kelib 100 taga yetdi.

¹⁰ Рустамов У.А. Советский Узбекистан на международной арене. – Т.: “Узбекистан”, 1979. – 208 с.

Uning tashabbusi bilan O'rta Osiyoda birinchi bo'lib Arxeologiya instituti tashkil etildi[11]¹¹.

1953-yili Stalin vafot etdi. Stalinning o'limidan so'ng SSSRning ichki va tashqi siyosatida ma'lum o'zgarishlar yuz berdi. Bunda KPSSning XX syezdi va unda Stalin shaxsiga sig'inishning qoralanishi, qatag'on qilingan kishilarning oqlanishi katta rol o'ynadi. Jamiyatda demokratik o'zgarishlarni amalga oshirish uchun harakat boshlandi[12]¹².

1956-yili Sh. Rashidov SSSR Ministrlar Soveti Raisining birinchi o'rinbosari A. I. Mikoyan boshchiligidagi SSSR Oliy Soveti delegatsiyasi tarkibida 22-martda Pokiston, 26–30-mart kunlari Hindiston, 30-mart – 2-aprel kunlari Birma, 2–6-aprel kunlari Vyetnam, 6–8-aprel kunlari Xitoy, 8–9-aprel kunlari Mo'g'ulistonga tashrif buyurdi. Moskvaga qaytgach, A. I. Mikoyan Sh. Rashidovning diplomatik qobiliyatiga yuqori baho berdi.

1957-yili SSSR Oliy Soveti Prezidiumi Raisi K. E. Voroshilov boshchiligidagi delegatsiya tarkibida Sh. Rashidov Indoneziya, Birma, Xitoy, Vyetnam, Hindiston, Eron, Iroq va Misrga tashrif buyurdi.

Ma'lumki, 1959-yili Kubada hokimiyatga kelgan Fidel Kastro hukumati mamlakatdagi islohotlarning sotsialistik xarakteri to'g'risida e'lon qildi. AQSH hukumati bir necha bor Kastro hukumatiga qarshi harakatlarni boshlab yubordi. 1962-yil kuzida sovet qo'shinlari tomonidan "Anadir" operatsiyasi amalga oshirildi. Kubaga maxfiy ravishda 40 ta yadroviy raketa va zarur anjomlar keltirildi. 1962-yil 14-yanvarda operatsiya to'liq yakunlandi. Bu operatsiyani amalga oshirishda Sh. Rashidov juda katta rol o'ynadi. U delegatsiya rahbari sifatida Fidel Kastro bilan o'tkazilgan muzokaralarda

¹¹ Каримов И. Ўзбекистон КП МКнинг XXII съезди сиёсий маърузасидан. – Тошкент:1990. – 25 б.

¹² Адибеков Г.М. Три крутых поворота (О взаимосвязи внешней и внутренней политики КПСС) // Вопросы истории КПСС, 1990, № 3. – С. 38.

sovet raketalarining bu mamlakatga joylashtirilishi faqat SSSRning emas, avvalo Kuba manfaatlariga mos ekanligini, AQSH tajovuzidan orolni va Kuba inqilobini ishonchli himoya qila olishini unga ishontirdi[13]¹³.

Sh. Rashidov Osiyo va Afrika mamlakatlarini sovet ta'sir doirasiga jalb qilish maqsadida bu davlatlarga tashriflarini davom ettirdi. 1963-yili u Jazoirga SSSR partiya-hukumat delegatsiyasi rahbari sifatida tashrif buyurdi. Jazoir 1962-yil 19-martda o'zining to'liq mustaqilligini e'lon qilgan edi. Sh. Rashidov Jazoir rahbarlari bilan o'zaro iqtisodiy hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha muzokaralar olib bordi.

Keyingi, 1964-yilda Sh. Rashidov sovet partiya-hukumat delegatsiyasiga rahbar bo'lib yana Jazoirga mamlakatdagi inqilobning o'n yilligini nishonlash tantanalariga tashrif buyurdi. Jazoir inqilobining 10 yilligi munosabati bilan bu yerga dunyoning 80 ta mamlakatidan delegatsiyalar tashrif buyurgan edi. Bu davrda O'zbekiston SSR erishgan ilmiy-texnik taraqqiyot darajasi, shakllangan olimlar jamoasi fanning ko'plab sohalarida yordam ko'rsatish imkoniyatiga ega edi. Arab Sharqi va Afrika mamlakatlariga ham ilmiy-texnik yordam ko'rsatish, ma'ruzalar o'qish, alohida ilmiy muammolarni o'rganish uchun O'zbekistondan borayotgan olimlar va mutaxassislar soni yildan-yilga ortib bordi. Faqat 1970–1974-yillarda chet ellarda, jumladan Arab Sharqi va Afrika mamlakatlarida, O'zbekiston SSR Fanlar akademiyasi bo'yicha 111 nafar olimlar bo'lib qaytishdi. Shu vaqt ichida respublika Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan Arab Sharqi va Afrikadagi rivojlanayotgan mamlakatlarga 42 nafar olim va mutaxassislar yuborildi. Bu olimlar Arab Sharqi va Afrika mamlakatlarida fanning turli sohalarini rivojlantirish hamda iqtisodiyot uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan sohalardagi muammolarni hal qilishda malakali yordam ko'rsatdilar[14]¹⁴.

¹³ Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоатчилик фонди архиви, 1956 йил материаллари.

¹⁴ Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоатчилик фонди архиви, 1964 йил материаллари.

SSSRga tashrif buyurgan chet mamlakatlarning ko'pchiligi O'zbekiston SSRga ham kelar edi. Masalan, 1956-yil yanvarda Eron parlamenti delegatsiyasi Toshkentga keldi. Parlament delegatsiyasi a'zolarini O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sh. Rashidov qabul qildi. Shu yil iyul oyida Eron shahanshohi Muhammad Rizo Pahlaviy Toshkentga keldi. Uni O'zbekiston rahbarlari kutib oldi. Shoh Samarqandga ham tashrif buyurdi. Unga O'zbekiston SSR Oliy Soveti raisi Sh. Rashidov hamrohlik qildi[15]¹⁵.

1956-yil 26-iyul kuni Pokiston parlamenti delegatsiyasi Toshkentga keldi. Ertasi kuni mehmonlar Sh. Rashidov tomonidan qabul qilindi. Ular O'zbekiston bilan tanishishni davom ettirdi.

Shu yil 5-sentabrda Indoneziya Respublikasi prezidenti Ahmad Sukarno Toshkentga keldi. 7-sentabr kuni O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sh. Rashidov Indoneziya prezidenti Sukarno sharafiga qabul marosimi o'tkazdi. Marosimda Sh. Rashidov va Sukarno nutq so'zlab, o'zaro munosabatlardan qoniqish bildirdi[16]¹⁶.

1957-yil 3-avgust kuni O'zbekistonga tashrif buyurgan Afg'oniston podshohi Muhammad Zohir Shoh sharafiga O'zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumi raisi Sharof Rashidov huzurida qabul marosimi uyushtirildi. Marosimda tomonlar yaxshi qo'shnichilik munosabatlarining ahamiyati, SSSRning Afg'onistonga yordami haqida fikr almashdilar[17]¹⁷. Xususan, 1954-yildan SSSR Afg'onistonga berib kelayotgan imtiyozli kreditlarni davom ettirish, afg'on yoshlarining ta'lim olishi borasida yordam ko'rsatish va ikki tomon uchun ham manfaatli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi[18]¹⁸.

¹⁵ "Қизил Ўзбекистон", 1956 йил 1 июль.

¹⁶ "Қизил Ўзбекистон", 1956 йил 26 июль.

¹⁷ "Қизил Ўзбекистон", 1956 йил 7 сентябрь.

¹⁸ Qarang: Набат М.М. Стратегия экономической помощи СССР Афганистану накануне вывода советских войск // Вестник Санкт-Петербургского университета Востоковедение и африканистики. 2013. Т. 10. Вып. 1.

1961-yil 16-iyul kuni Gana Respublikasi prezidenti va tashqi ishlar vaziri Kvame Nkruma O‘zbekistonga tashrif buyurdi[19]¹⁹. Kvame Nkruma faylasuf va sotsiolog bo‘lib, AQSH va Buyuk Britaniyaning bir qator universitetlarida o‘qigan va dars bergan. U Afrika ozodligi va tengligi uchun kurashchi sifatida tanilgan bo‘lib, O‘zbekistonning rivojlanish yutuqlari bilan tanishdi. Unga Sh. Rashidov hamrohlik qildi[20]²⁰.

1961-yil sentabrda Hindiston Respublikasi bosh vaziri Javoharlal Neru O‘zbekistonga tashrif buyurdi. Mehmon O‘zbekiston rahbariyati tomonidan kutib olindi va O‘zbekiston SSR Oliy Soveti Prezidiumida qabul marosimi o‘tkazildi. J. Neru va Sh. Rashidov o‘rtasidagi suhbatda tomonlar o‘zaro aloqalarni mustahkamlashga qiziqish bildirdi.

Sharof Rashidov rahbarlik qilgan yillarda O‘zbekistonning xalqaro ilmiy aloqalari ham jadal rivojlandi. Bu davrda O‘zbekiston rivojlanayotgan mamlakatlar uchun milliy kadrlar tayyorlaydigan markazlardan biriga aylandi. Toshkent davlat universiteti (hozirgi Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti)ning maxsus fakulteti yigirma yil davomida turli mamlakatlardan kelgan 3 mingdan ortiq chet el yoshlarini o‘qitdi. Ularning ko‘pchiligi keyinchalik respublika oliy o‘quv yurtlarini muvaffaqiyatli tamomladi.

Faqat 1982-yilda O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlarida dunyoning 73 mamlakatidan 3 mingdan ortiq talaba, aspirant va stajyor ta’lim oldi. Bundan tashqari, Toshkent davlat universitetida AQSH, Fransiya, Germaniya, Hindiston, Iroq, Afg‘oniston va boshqa mamlakatlardan kelgan olimlar va pedagoglar faoliyat yuritdi. Shuningdek, ushbu universitetning talaba va aspirantlari ham Sharq mamlakatlarida ta’lim oldi.

XX asrning 60-yillari ikkinchi yarmi – 80-yillari boshlarida O‘zbekiston SSRning iqtisodiy va madaniy rivojlanishida yuz bergan ijobiy o‘zgarishlar hamda Sharof

– С. 118–119.

¹⁹ O‘zMA, 2037-fond, 7-ro‘yxat, 153-yig‘majild, 34-varaq.

²⁰ “Қизил Ўзбекистон”, 1957 йил 3 август.

Rashidovning SSSR xalqaro aloqalaridagi ishtiroki tufayli respublikaning chet mamlakatlar bilan iqtisodiy va madaniy aloqalari yanada kuchaydi. Biroq respublikada paxta yakkahokimligi va iqtisodiyotning biryoqlama rivojlanishi iqtisodiy aloqalarning sifatiga ham ta'sir ko'rsatdi. O'zbekiston ko'proq xom ashyo, asosan qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetkazib beruvchi respublika sifatida qolib ketdi.

XULOSA

1959–1983-yillarda O'zbekiston SSRning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida Sharof Rashidov muhim o'rin tutgan davlat va siyosat arboblardan biri hisoblanadi. Uning rahbarligi davrida respublikada sanoat, qishloq xo'jaligi, energetika, transport va qurilish sohalarida sezilarli yutuqlarga erishildi. Toshkent aviatsiya ishlab chiqarish birlashmasi, Muruntov oltin koni, yirik issiqlik elektr stansiyalari hamda Toshkent metropolitenining barpo etilishi O'zbekistonning iqtisodiy salohiyatini mustahkamlashga xizmat qildi.

Mazkur davrda fan, ta'lim va madaniyat sohalarida ham muhim o'zgarishlar yuz berdi. Ilmiy-tadqiqot muassasalari sonining ortishi, yangi madaniy markazlarning tashkil etilishi, xalqaro ilmiy va madaniy aloqalarning kengayishi respublikaning ilmiy-madaniy taraqqiyotiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Sharof Rashidov tashabbusi bilan O'zbekistonning xalqaro nufuzi oshib, u Osiyo va Afrika mamlakatlari bilan ilmiy, madaniy va iqtisodiy hamkorlik aloqalarini rivojlantirishda faol ishtirok etdi.

Shu bilan birga, iqtisodiyotning paxtachilikka haddan tashqari ixtisoslashuvi va markaz tomonidan yuritilgan biryoqlama siyosat respublika iqtisodiy rivojlanishining muayyan cheklanishlariga sabab bo'ldi. Natijada O'zbekiston asosan xom ashyo yetkazib beruvchi hudud sifatida shakllanib qoldi hamda keyinchalik ekologik va iqtisodiy muammolar yuzaga keldi.

Umuman olganda, Sharof Rashidov faoliyati O'zbekiston SSR tarixida murakkab va serqirra jarayon sifatida namoyon bo'ladi. Uning rahbarligi davrida amalga oshirilgan

ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy islohotlar respublika taraqqiyotida muhim iz qoldirgan bo‘lib, mazkur davr O‘zbekistonning XX asr ikkinchi yarmidagi rivojlanish tarixida alohida o‘rin egallaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. – Toshkent: O‘zbekiston, 2018. – 497 b.
2. Калашников М. Кугушев С. Третий проект: погружение. – М.: Издательская группа АСТ, 2002. – С. 231.
3. Мазкур муаллифлар асарлари диссертациянинг «Фойдаланилган адабиётлар рўйхати»да берилган.
4. Алимардонов Т. Ўчмас шараф. – Тошкент: Доно, 2017. – 272 б.
5. Gregory Gleason. Sharaf Rashidov and the dilemmas of national leadership, Central Asian Survey Vol. 5. Iss. 3-4, 1986.
6. Ризаев С. Шараф Рашидов. Штрихи к портрету. – Т.: “Ёзувчи” – “Нур”, 1992. -246 с.
7. Клименко А.И. Духовно-нравственное воспитание студентов в учебном процессе. – 2024. – С. 56-59; Кашина С.В. Духовно-нравственное воспитание подрастающего поколения в системе дополнительного образования //Сфера образования. 2020. – С. 27; Михеенко Я.С. Духовно-нравственный потенциал рассказа А. П. Гайдара “Дым в лесу” //Аксиологический диапазон художественной литературы: сб. науч. статей. – Витебск: ВГУ имени П. М. Машерова, 2020. – С. 62-64.
8. Абуталипов Ч.А. Международные связи Узбекистана. – Т., 1964 – 119 с.; Абуталипов Ч.А. Под ленинским знаменем дружбы и мира. – Т.: Государственное издательство Узбекской ССР. 1970. – 365 с.

9. Маннонов Б., Нишонов М. Ўзбекистон ССРнинг чет мамлакатлар билан иқтисодий ва маданий алоқалари. – Т.: «Фан», 1974. – 54 б.
10. Муҳитдинов Н.А. Кремлда ўтган кунларим [Эсдаликлар]. Биринчи китоб. – Тошкент, “Ўзбекистон”, 1995. 316 с.
11. Рустамов У.А. Советский Узбекистан на международной арене. – Т.: “Узбекистан”, 1979. – 208 с.
12. Каримов И. Ўзбекистон КП МКнинг XXII съезди сиёсий маърузасидан. – Тошкент:1990. – 25 б.
13. Адибеков Г.М. Три крутых поворота (О взаимосвязи внешней и внутренней политики КПСС) // Вопросы истории КПСС, 1990, № 3. – С. 38.
14. Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоатчилик фонди архиви, 1956 йил материаллари.
15. Шароф Рашидов номидаги халқаро жамоатчилик фонди архиви, 1964 йил материаллари.
16. “Қизил Ўзбекистон”, 1956 йил 26 июль.
17. Qarang: Набат М.М. Стратегия экономической помощи СССР Афганистану накануне вывода советских войск // Вестник Санкт-Петербургского университета Востоковедение и африканистики. 2013. Т. 10. Вып. 1. – С. 118–119.
19. О‘зМА, 2037-fond, 7-ro‘uxat, 153-yig‘majild, 34-varaq.
20. “Қизил Ўзбекистон”, 1957 йил 3 август.